

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ADABIYOT FANINI O'QITISHNING MILLIY TIZIMINI
YARATISH

Karimova Yulduz Baxtiyorovna
Ahmadova Azimaxon Behzod qizi

Annontatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishning milliy tizimlarini yaratish bo'yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ilmiy adabiyotlar, badiiy adabiyotlar, darsliklar, adabiyot o'qitish uslubiyati, pedagogik mahorat.*

Аннотация: *В данной статье представлены предложения и рекомендации по созданию национальной системы преподавания литературы в общеобразовательной школе.*

Ключевые слова: *научная литература, художественная литература, учебники, методика преподавания литературы, педагогическое мастерство.*

Annotation: *This article presents proposals and recommendations for the creation of national systems of teaching literature in secondary schools.*

Key words: *scientific literature, fiction literature, textbooks, methodology of teaching literature, pedagogical skills.*

Umumta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlab o'quvchilarga adabiyotshunoslikka oid ilk ma'lumotlar berib boriladi. Maktabda, so'ng o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida adabiyot o'qitish dasturlari o'quvchilarga bosqichma-bosqich badiiy adabiyotning mohiyati, adabiy tur va janrlar, badiiy obraz va obrazlilik, she'r tizimlari, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatib borishni ko'zda tutadi. Adabiyot xalq bilan birga yashab, takomillashib boradi. Maktab yoshidagi bolalarda bu fanga bo'lgan qiziqish juda erta shakllanadi. Tarbiyaning asosi ham aynan shu fan bilan bog'liqdir. Globallashuv asrida xalqlarning, tillarning o'z milliyligini saqlab yashab qolishi har jihatdan intellektual salohiyatga bog'liq hisoblanadi. Zero, prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".³ Maktab o'quvchilariga adabiyot darsligini o'rgatishda uning tub mohiyatini tushuntirish zarur. Sharq mamalakatlarida adabiyotga insonni odob va axloqqa yo'naltiruvchi ruhiy-ma'naviy manba sifatida qaralgan. Ilmiy adabiyotlarda esa quyidagicha ta'rif beriladi: "Adabiyotshunoslik (arabcha-adab, forscha-

³ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. T.;2016. 7-dekabr

tanish, o'rganish) – badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarini o'rganuvchi fan".⁴

Adabiyot necha asrlardan buyon komil insonni yaratish uchun xizmat qilishi lozimligini tasdiqladi. Adabiyot barcha insonlarga – boyga ham, o'rtaholga ham, kambag'alga ham hayot darsligi vazifasini o'tashi kerakligini, adabiyotimizni diniy-mistik adabiyot, saroy-feodal adabiyoti, tasavvuf yoxud so'fizm adabiyoti, o'zbek jadid adabiyoti kabi bo'laklarga bo'lib, uni regressiv xarakterdagi yo'nalish deb atashning beburdligini (So'fi Olloyor, Naqshband, Ahmad Yassaviy, Feruz, Husayn Boyqaro...) tushuntirdi, ularni o'rganishni yo'lga qo'ydi. Xalq uchun ular ham darslik ekanini isbotladi.⁵ Badiiy asarning tahlil va talqini har jihatdan yetuk va komil inson tasvirini o'rganishga qaratilishi adabiyot ilmining mazmunini tamoman o'zgartirdi.

Har qanday badiiy asarda insonga xos bo'lgan fazilat va illatlar ifoda etiladi. Hatto hayvonlar to'g'risida bitilgan ertaklarda ham tagzaminida insoniy tuyg'ular yotadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil, yurak orqali seziladi. 6-sinf adabiyot darsligida G'ofur G'ulomning "Shum bola" qissasidan parcha beriladi. Bu o'quvchilarga insof, diyonat, yolg'on gapirmaslik, qiziqarli maqollar, hikmatlar orqali yoritib berilganki, bunda kitobxon haqiqiy o'zbekning quv bolasini ko'radi. Aynan shu darslikda Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari ham berilgan. Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi ham o'quvchilarni mushohada yuritishga chorlaydi. Bu asarlar milliy mentalitetning yorqin namunasi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi hech qanday ko'rgazmali qurolga ega bo'lishi shart emas. Bu xususiyat har bir bolalarning ich-ichiga tabiiy singib ketgan.

7-sinf adabiyot darsligida esa Alisher Navoiy, Uvaysiy, Zavqiy, Abdulla Qodiriy asarlaridan, ijodidan parchalar berilgan. Cho'lpon she'rlari o'ziga xosligi bilan o'zbek she'riyatining yorqin yulduzi sifatida o'tkinchi bulutlar pardasini yirtib tashlab, milliy she'riyat osmonida qayta porladi. Masalan: "Xalq" she'ri.

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir...

Cho'lpon haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan ijodkor edi. U xalqning katta kuch ekanligiga ishonar va kun kelib milliy o'zligini anglagan millatni ko'rishni orzu qilardi. Uning she'ri aynan tuyg'ularga ta'sir ko'rsatish uchun bitilgan. U she'rxonning hissiy dunyosini bezovta qiladi. Chunki shoirning o'zi tuyg'ular girdobida yashaydi.

Badiiy adabiyotning ilmdan tub farqi shundaki, u ma'naviy haqiqatlarni aks ettiradi, fan esa ilmiy haqiqatlarni ifoda etadi. Ilmiy haqiqatning haqiqatligi fikr, mantiq orqali bilinsa, ma'naviy haqiqatni his-tuyg'u vositasida tuyish mumkin. Ma'naviy haqiqatlar inson mavjudligining maqsadini belgilab bersa, ilmiy haqiqatlar ana shu maqsadga erishishga xizmat qiladigan vositalarni topib beradi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, inson faoliyatida ma'naviyat birlamchi ahamiyatga ega, ammo ilmsiz uni shakllantirish mumkin emas. Chunki

⁴ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T. "Akademnashr" 2013. 6-bet

⁵ Umurov H. Adabiyot qoidalari. T., "O'qituvchi". 2010. 13-bet

ma'naviyatsiz fan bo'lmaganidek, ilmsiz ma'naviyat ham ham yo'qdir. Badiiy asarlarning kishida his-tuyg'u uyg'otishining sababi, shundaki, har qanday badiiy asar, avvalo, kechinma, hissiyot, munosabatning mahsulidir. Adabiyotdan bo'lak o'quv fanlarida hissiyot bo'rtib, ko'zga tashlanib turmaydi. Badiiy adabiyotda, asosan, tuyg'ular bilan ish ko'riladi. Hamisha ta'sirlar og'ushida, munosabatlar va kechinmalar qurshovida bo'linadi. Chunki, yozuvchi o'z kechinma va hissiyotlarini kitobxondan bekitmaydi, aksincha, unga yuqtirishga intiladi. Mana shuning uchun ham badiiy asar qahramonlari xuddi tirik odamlarday, go'yo yaqin kishilarday kitobxonni bezovta qiladi, o'ylantiradi.

Yangi darsliklarimizda mumtoz adabiyotga e'tibor kuchaytirilmoqda. 8-sinf ona tili darsligida mustahkamlash darslari (25-26-darslar). Mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlash darsida Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridan "Talab vodiysi" g'azali keltiriladi. Bu g'azal ruknlarga bo'lib ayrim murakkab so'zlar tahlili bilan berilgan. 66-mashqda esa bu so'zlar izohi berilib g'azal matnidani aniqlash topshiriladi. Masalan:

Chun talab vo/diysig'a qo'y/sang qadam,
Ollinga har/dam kelur yuz/ming alam.

O'quvchi bu baytni tushunishi uchun tasavvuf adabiyotining mazmunini bilishi kerak. 8-sinf o'quvchisiga tasavvufiy atamalarni o'rgatish o'qituvchiga qiyinlik tug'diradi. Aslida bu g'azalni nasriy bayonini ham birga berish kerak.

Navoiyning "Lison ut-tayr" asarining 1991-yilgi nashrida:⁶

Zohir etti ajz ahvolini Kuf:

"Kim erurmen men zaifu, yo'l-maxuf"

shaklida berilgan. Xuddi shu asarning 1984-yilda chop etilgan nasriy bayonida esa Kuf(boyo'g'li) o'z ahvolidan shunday shikoyat qiladi. Men zaif va ojiz bir qushman, yo'l esa qo'rqinchlidir.⁷ Har ikki manbani solishtiradigan bo'lsak, o'quvchi uchun qulay shakl nasriy bayonining mavjudligidir. Til har qancha sodda bo'lsa, tushunilishi oson bo'ladi. Navoiy davridan to bugunga qadar tilimizdagi qanchadan qancha so'zlar iste'moldan chiqib, yangi tushunchalar o'rnini egalladi. Ayrimlari esa mutlaqo eskirdi. Shularni inobatga oladigan bo'lsak, tilning soddaligi mazmunga yo'l ochadi. Yangi darsliklarda nasriy bayonning berilishi qulaylik yaratadi. 10-sinf adabiyot darsligida Z.M.Boburning "Boburnoma" asari berilgan. Bu asar hozirgi kun o'quvchisiga tili soddalashtirib, izohlar bilan berilgan. Ammo o'qituvchi bu mavzuni hikoya shaklida o'quvchiga tushuntirib berishi lozim. Chunki asardan parcha yozilgan bo'lib, o'quvchi uning tub mohiyatini anglolmay qolishi mumkin. Bundan tashqari har bir sinf uchun video slayd orqali dars o'tishga imkoniyat yo'q. Shunday ekan rasmlil albom har bir adabiyot darsligi bilan birga nashrdan chiqarilsa, o'quvchiga ta'sir kuchi ko'proq bo'ladi. Hozirgi kunda muzeylarda saqlanayotgan asarlarning asl manbasi tushirilgan sur'at, yoki ilk sahnaga qo'yilgan Behbudiyning "Padarkush" dramasi sur'atlari darslik bilan birga berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quvchi geografiya darsligida xarita bilan ishlagandek, adabiyotda ham rasmlil ma'lumotga ega bo'ladi. Birgina

⁶ Alisher Navoiy. Lisonut tayr. T., G'. G'ulom nomidagi n ashriyot-matbaa birlashmasi. 1991. 75-bet

⁷ Alisher Navoiy. Lisonut tayr. T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984. 49-bet

Toshkentda yoki Samarqandda saqlanayotgan asl manbalar har bir o'quvchining qo'lidagi kitob bilan birga bo'lsa, asarga, yozuvchiga bo'lgan qiziqish yanada kuchayadi.

Demak, adabiyot o'qitish uslubiyati – o'qituvchining adabiyot ilmidan mukammal bilimga ega bo'lishini va shu bilimni ilmiy, uslubiy jihatdan qiziqarli va zaqli qilib o'quvchi va talabalarga singdirishni talab qiladi. Bu fan o'qituvchisida ilmiy bilimdonlik va pedagogik mahorat jamuljam bo'lishi, ular birlashib barkamol insonlarni yetishtirish ishiga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T. "Akademnashr" 2013.
2. B. Valixo'jayev. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T., "O'zbekiston", 1993.
3. Umurov H. Adabiyot qoidalari. T., "O'qituvchi". 2010.
4. Qozoqboy Yo'ldoshev va boshqalar. Adabiyot (7-sinf uchundarslik-majmua)- T.; Sharq, 2017.
5. Qozoqboy Yo'ldoshev va boshqalar. Adabiyot (7-sinf uchundarslik-majmua)- T.; Sharq, 2017.
6. Qozoqboy Yo'ldoshev va boshqalar. Adabiyot (7-sinf uchundarslik-majmua)- T.; Sharq, 2017.
7. Alisher Navoiy. Lisonut tayr. T., G'. G'ulom nomidagi n ashriyot-matbaa birlashmasi. 1991.
8. Alisher Navoiy. Lisonut tayr. T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984.
9. Z.M. Bobur. Boburnoma. T., 1989.